

**BUXORO VILOYATIDAGI “OBOD” KOMPONENTLI TOPONIMLAR***Kilichev Bayramali Ergashovich**Buxoro davlat universiteti o'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasida professori*

*Annotatsiya: Buxoro viloyati tarixiy joy nomlariga boy hududlardan biri hisoblanadi. Unda bir necha asrlik tarixga ega yuzdan ortiq toponimlar mavjud. Ushbu toponimlar tarkibida bir necha toponimik lug'aviy birliklar qo'llanadiki, ular sirasida obod komponenti alohida o'rin va mavqega ega. Obod so'zi viloyat toponimiyasining bir qator guruhlarida tarkibida qo'llanadi. Ma'nosi jihatdan bu so'z aholi punkti, ko'cha, mahalla, guzar, ko'l, kollektor kabi toponimlarda qo'llanadi.*

*Kalit so'zlar: Buxoro, atoqli ot, toponim, toponimiya, obod, obod komponenti, aholi punkti nomi, ko'cha nomi.*

**ТОПОНИМЫ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ С КОМПОНЕНТОМ “ОБОД”***Киличев Байрамали Эргашович**Профессор кафедры узбекского языкознания и журналистики  
Бухарского государственного университета*

*Аннотация: Бухарская область является одним из регионов, богатыми историческими топонимами. Здесь имеется более сотни топонимов с историей в несколько столетий. В этих топонимах используется несколько топонимических лексических единиц, в которых топонимический компонент абад занимает особое место и положение. Слово абад используется в ряде групп региональной топонимики. По смыслу это слово употребляется в таких топонимах, как поселок, улица, махалля, гузар, озеро, коллектор.*

*Ключевые слова: Бухара, имя собственное, топоним, топонимика, абад, компонент абад, название населенного пункта, название улицы.*

**TOPONYMS OF BUKHARA REGION WITH THE COMPONENT “OBOD”***Kilichev Bayramali Ergashovich**Professor of the Department of Uzbek Linguistics and Journalistics  
Bukhara State University*

*Abstract: Bukhara is one of the regions rich in historical toponyms. In this region more than a hundred toponyms with a history of several centuries. These toponyms use several toponymic lexical units. The toponymic component «obod» occupies a special place and position. The word «obod» is used in a number of regional toponymic groups. In terms of meaning, this word is used in such toponyms as village, street, mahalla, guzar; lake, collector.*

*Keywords: Bukhara, proper name, toponym, toponymy, abad, component abad, name of a settlement, street name.*

**Kirish.** O'zbekiston toponimiyasining ajralmas qismi sanalgan Buxoro toponimlar o'ziga xos uzoq tarixiy shakllanish bosqichlarini bosib o'tgan. Ularning shakllanishi turli ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy-siyosiy jarayonlarga borib taqaladi. Buxoro toponimiyasida obod komponentli toponimlar ko'plab qo'llanadi. Ushbu lug'aviy birlik turli ma'nolarda aholi punkti, mahalla, guzar, ko'cha, qabriston, ko'l, quduq, kollektor va boshqalarning nomi tarkibida uchraydi.

**Dolzarbligi.** Obod komponentli toponimlar viloyat toponimiyasida alohida bir guruhni tashkil etadi. Ularni lingvistik jihatdan tahlil etish hozirgi kun toponimiya uchun dolzarbdir. Chunki mazkur so'zning leksik-semantik va etimologik nuqtayi nazardan tadqiq qilinishi va toponimiyada qo'llanish omillarini o'rganish viloyat toponimiyasining shakllanishi borasida yetarlicha xulosalar chiqarishga asos bo'ladi.

**Adabiyotlar sharhi.** O'zbekiston toponimiyasidagi toponimlar tarkibida qo'llangan obod komponenti bilan bog'liq jihatlar M.Andreyev, V.Nikonov, A.L.Xromov, R.Abramyan, O'.Rajabov, Z.Do'simov, X.Egamov, S.Qorayev, T.Nafasov kabi olimlarning ilmiy

izlanishlarida tahlil etilgan. Bu ishlarda respublikamizning bir qator hududlarida uchraydigan obod komponentli toponimlar sharhlangan. Ularda mazkur soʻzning etimologiyasi, qaysi tilga mansubligi kabi masalalar ayrim toponimlar misolida shahlangan.

Biz ushbu axborotda Buxoro viloyati toponimiyasida uchraydigan obod komponentli toponimlarining ayrimlarini leksik-semantik va etimologik nuqtayi nazardan tahlil qilamiz.

Tahlil va natijalar. A.L.Xromov obod komponenti haqida fikr yuritib, uning Oʻrta Osiyoda eng sermahsul topoformantlardan ekanligini, shuningdek, u Eron, Afgʻoniston va Pokiston kabi mamlakatlarda ham uchrashini qayd etgan [1, 60].

R.Abramyan obod komponentini oʻrta fors tiliga mansub deb hisoblab, u aholi mavjud joy, yashnayotgan maskan kabi maʼnolarni bildirishini koʻrsatgan [2, 61].

Hozirgi paytda mamlakatimiz hududida obod qishloq, aholi punkti maʼnolarida qoʻllanadi. Bu soʻzni ayrim toponimistlar, jumladan, E.Murzayev, T.Nafasovlar joy nomi yasovchi formant deb qayd qilgan.

Hozirda obod komponenti yangi nomlar yasashda ham ishtirok etmoqda: Yangiobod, Istiqlolobod, Hukumatobod, Gulobod, Yaxshiobod, Zafarobod kabi.

Oʻ.Rajabov Xorazm toponimiyasidagi indikatorlar xususida fikr yuritib, avat (adabiy orf. obod). Shavat, Gʻazavat, Xiziravat, Amirabat, Qulavat va hokazo toponimlar tarkibida uchrashini qayd etgan hamda Shovot toponimimni sharhlar ekan, uning aslida Shohobod boʻlganligi, talaffuzda ikki unli orasidagi h tushgan, ikki o unlisi qoʻshilib choʻziqlashgan, intervokal holatdagi b tovushi v ga aylangan b>v, soʻz oxiridagi d>t oʻzgargan. Natijada Shohobod>Sha[x] obod>Sha:vat boʻlganligi bayon etgan [3, 46].

Oʻrni bilan shuni taʼkidlash kerakki, toponimistlar toponim tarkibidagi qoʻshimchalarni affiks deb hisoblaydilar. Toʻgʻri, oʻzbek tilining morfologik strukturasi asosiy xususiyat agglutinativdir. Unda yasama soʻzlar va soʻz formalari oʻzakka maʼlum tartibda, izchillik bilan affikslar qoʻshish orqali hosil qilinadi. Soʻz bir-biridan qatʼiy farq qiladigan, ajrala oladigan ikki tovush kompleksidan (oʻzak kompleksi va affiks kompleksidan) iborat boʻladi [4, 69-70]. Biroq toponimlar va indikatorlar tarkibidagi biz affiks deb hisoblayotgan qism ayrim hollarda toponimik yasashning natijasida emas, balki toponimga aylangan soʻz tarkibida mavjud boʻladi.

Toponimlarning morfologik strukturasi shunday elementlar borki, ular semantik jihatdan til strukturasi holatini yoʻqotgan. Bu elementlar nomlar tarkibida affiks, toʻgʻrirogʻi affiksoid holiga kelib qolgan, ular toponimning biror xarakterli xususiyatiga yoki uning tarixiga ishora etadi. Koʻpincha, bu elementlar toponimik indikator sifatida qoʻllaniladi [5, 72-74].

Bunday nomlar ham morfologik jihatdan oʻziga xos xususiyatga ega. Masalan: abad indikatorini genetik jihatdan fors-tojik tiliga xos boʻlgan leksemdir. Ammo hozirgi oʻzbek adabiy tilida va koʻpgina oʻzbek shevalarida maʼno jihatdan ancha toraygan. Ayrim tadqiqotchilarning tekshirishicha abad soʻzi oʻz tabiatini oʻzgartirgan va hozirgi oʻzbek adabiy tilida mustaqil soʻz va affiks sifatida qoʻllaniladi [6, 106]. Mazkur element fors-tojik tillarida ham faol leksema sifatida qoʻllaniladi, shuningdek, har ikki tilda ham affiks vazifasidan faqat joy nomi yasovchi forma – toponimik indikator boʻlib qoʻllaniladi. Obod toponimlar tarkibida kelganda «qishloq, ovul, shahar» maʼnolarini anglatadi. Shuningdek, ayrim nomlarda «farovon, qayta tiklangan» kabi semantik yoʻnalishga ega boʻladi.

Xorazm toponimiyasida bu tipdagi elementlarning xarakterli xususiyati shundan iboratki, ular affiks vazifasini bajarib, ergash morfemaga yaqinlasha boshlagan boʻlsa ham, hali affiksga aylanib etmagan. Bular affiksoidlarga oʻxshaydi [3, 58-59].

T.Nafasov obod komponenti haqida fikr yuritib, joy, asosan, qishloq nomlari yasovchi soʻz, deb koʻrsatgan. Obod soʻzining qishloq nomlari yasash anʼanasi va vazifasi miloddan avvalgi 3-4 asrlarda boshlangan. Dastlab Eron hududida sosoniylar hukmronligi davrida obod soʻzli boshqa qishloq nomlari paydo boʻlgan. shu tur nomlar Armanistonda ham yuzaga kelgan. Movarounnahrda esa VII-VIII asrdan boshlab obod soʻzli qishloq nomlari yaralgan. XIII asrda bu tur nomlar miqdori va xili koʻpaygan. Dastlab obod soʻzi kishi ismlariga qoʻshilgan, yangi erlar ochib, yangi aholi punktlari tashkil qilgan kishilar ismiga qoʻshilgan. Obod soʻzning maʼnolari – odam yashaydigan joy, yangidan oʻzlashtirilib aholi punkti tashkil qilingan maskan;

qishloq, ovul; gullab-ya'shnagan maskan. Yangiobod, Mehnatobod, Xalqobod, Paxtaobod, Elobod kabi nomlarda ana shu ma'no mujassam. Obod so'zning yolg'iz o'zi joy nomiga, qishloq, aholi punkti, shaharcha nomiga aylanishi o'zbek nomshunosligida kam uchraydigan lisoniy, ijtimoiy, onomastik hodisa [7, 187-188].

Buxoro viloyati hududida 555 ta obyektida nomi tarkibida obod komponenti ishtirok etganligi aniqlandi. Shundan 399 ta ko'cha, 1 ta ariq, 109 ta aholi punkti, 1 ta kollektor, 11 ta qabriston, 4 ta qishloq, 30 mahalla nomida obod so'zi ishtirok etgan.

Tadqiqotimizning davomida Buxoro viloyati toponimiyasida uchraydigan obod komponentli ayrim nomlarni tahlil qilamiz.

Amirobod. Kogon, Buxoro, G'ijduvon tumanlaridagi aholi punkti nomi. Amir – o'tmishda qo'llangan oliy mansab atamalaridan biri, podsholik, xonlik unvonini bildirgan. Amirobod – “Amirning qishlog'i, amirga qarashli erlarda bunyod etilgan qishloq” ma'nosidadir.

Mirobod. Qorako'l tumanidagi aholi punkti nomi. Toponim obod toponimik indikator orqali yasalgan. Obod so'zining “rivojlangan”, “obod” qilingan kabi ma'nolaridan tashqari “qishloq” degan ma'noda ham qo'llanishi, V.A.Nikonov tomonidan qayd etilgan [8, 21]. Nomning birinchi qismi mir – “amir”: amir obod qilgan qishloq demakdir [9, 97].

Paxtaobod. Jondor, Shofirkon tumanlaridagi aholi punkti nomi. Bu nom paxtadan yuqori hosil olinganligi uchun, yoki paxtadan shu qishloq obod bo'lganligi uchun qo'yilgan bo'lsa kerak.

Turkonobod. Buxoro tumanidagi aholi punkti nomi. “Turkon” va “obod” so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan. “Obod Turkon qishlog'i” degan ma'noda qo'llanadi.

Xayrabod/Xayrobodcha. Vobkent tumanidagi aholi punkti nomi. “Xayr uchun, yaxshilik uchun bunyod etilgan qishloq” ma'nosida bo'lsa kerak. Toponimning asl etimonini aniqlash imkoni bo'shlmadi.

Xonobod/Xonobod. Buxoro tumanidagi mahalla fuqarolar yig'ini hamda aholi punkti nomi. Tarkibi: xon+obod. Xon so'zi “qator Sharq mamlakatlarida o'rta asrga xos hokimi mutlaqning unvoni va shu unvonni olgan kishi”, “xonlik qilgan, xon lavozimidagi shaxs ismiga qo'shib, unvon ifodalaydi”, “erkak va ayollar ismiga qo'shib, hurmatni ifodalaydi” kabi ma'nolarda qo'llanadi [10, 331]. Mazkur so'z obod so'zi bilan qo'shib, “xon tomonidan obod qilingan qishloq” ma'nosini ifodalaydi.

Xonobod toponimi haqida yana quyidagilarni aytish mumkin: qishloq Buxoro shahri yaqinida joylashgan. Buxoro xoni Ubaydulloxon tomonidan 1709-yilda shaharning g'arbiy darvozasi – Talipoch yaqinida bunyod qilingan. Chorbog' va uning o'rtasida qurilgan saroy, atrofi baland devor bilan o'rab olingan joy.

T.Nafasovning qayd etishiga ko'ra, “eroniy tillarda: “Avesto”da xan – “chashma”; so'g'd tilida xan/xon – “ariq”; parfiyan tilida xan, xanig – “chashma”, “ariq”, “hovuz”, “suv chiqadigan joy” kabi ma'nolarga ham ega [7, 272].

M.S.Andreyev va E.M.Pesherovalarning “Ягнобские тексты” asarida “yag'nob tilida xan – “suv oqar ariq”, “sug'orish kanali”, katta xan – “katta ariq”, pulchak xan – “kichik ariq”; tojik tilida xon – “kichik hovuz”, xani – “chashma”, “suv oqib chiqqan joy” kabi ma'nolarga ega [11, 335].

Demak, Xonabad/Xonobod toponimining yana bir ma'nosi – “anhor bo'yidagi qishloq”, “ariq bo'yida yangidan qurilgan qishloq”dir.

Sherobod. Kogon tumanidagi aholi punkti nomi. Xalq tilida Sher ismli kishi tomonidan obod qilingan maskan, degan sharh mavjud. T.Nafasovning ma'lumotiga ko'ra nomning tovush va morfem tarkibi o'zgarib ketgan. Birinchi qismi sher/shir – tosh; balandlik cho'qqi. Ikkinchi qismi obod: rabod/ravat/rovit). Sherobod←sherrabod, ya'ni tosh qo'rg'on ma'nosiga ega [7, 323]. Bizningcha, Buxoro viloyatidagi Sherobod toponimi Sher ismli kishi bilan bog'liq bo'lsa kerak. Chunki mazkur hududda tosh, balandlik yoki tog' mavjud emas.

Sho'robod. Vobkent, G'ijduvon, Kogon, Qorako'l, Peshko', Jondor tumanlaridagi aholi punkti nomi. Sho'r erlar obod qilingandan keyin, ya'ni erlar hosilga kirgandan keyin atalgan bo'lsa kerak.

Yangiobod. Buxoro, Jondor, Peshko', Qorako'l, Shofirkon, G'ijduvon tumanlaridagi aholi punkti nomi. Vaqt jihatidan keyingi davrlarda yaratilgan qishloqlar. Yangiqishloq va



Yangiobodning farqi shuki, yangi o‘zlashtirilgan erda tashkil bo‘lgan qishloqlar. Obod – eroniy tillarga oid so‘z. Sharq joy nomlari tizimida IX asrlardan boshlab paydo bo‘lgan. Dastlab kishi ismlari bilan qo‘shilib qishloq nomlari yasalgan [7, 340].

Xulosa. Buxoro toponimlardan obod so‘zi ishtirokidagi nomlar uzoq tarixiy jarayonlar natijasida yuzaga kelgan. Ularda qadimgi so‘g‘d, qadimgi eroniy tillari ta‘siri mavjud bo‘lib, uning natijasida bir qator toponimlar shakllangan. Bu holat Buxoro toponimlarining naqadar qadimgi tarixga tegishli ekanligini asoslaydi.

Obod komponenti qatnashgan nomlar aholi yashash manzillari, shuningdek, kishilarning turmush tarzi bilan bog‘liq ko‘plab sohalarda qo‘llanadi. Bunda obod komponentining turli ma‘nolari inobatga olinadi.

Obod komponenti uzoq tarixdan to hozirgi kunga qadar viloyat toponimiyasidagi faol istemolda bo‘lgan topoformantlardan biridir. Bu komponent zamonaviy toponimiyada ham yangi nomlarning yasalishida keng qo‘llanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Хромов А.Л. Таджикская микропонимия долин Врехнего зеравшана и ягноба // Ономастика Средней Азии. - М., 1978. – С.60.

Абрамян Р. Пехлавийско–персидско – армяно-русско – английский словарь. - Ереван, 1965. – С.61.

Ражабов Ў. Хоразм топонимияси индикаторларининг лисоний таҳлили: Филол. фанл. номз... диссер. –Т., 2007. –Б.46; 58-59.

Ўзбек тили грамматикаси. Т.І. Морфология. - Т., 1975. – Б. 69-70.

Дўсимов З. Топонимик индикаторлар // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1972. - № 5.- Б, 72-74.

Турсунов У. ва б. Ҳозирги замон ўзбек тили. –Самарқанд, 1960. – Б. 106.

Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. –Т.: Мухаррир, 2009. –Б.187-188.

Никонов В.А. Краткий топонимический словарь. –М.: 1966. –С.21.

Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. –Т.: Ўқитувчи, 1977. –Б.97.

Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 томлик. 2-том. –М.: Рус тили, 1981. –Б.331.

Андреев М.С., Пешерова Е.М. Ягнобские тексты. –М.-Л.: 1957. –С.335.

Киличев Б.Э. Бухоро этнотопонимлари ва уларнинг этимологик хусусиятлари // “Бухоро davlat universiteti ilmiy axborotlari”, 2018, 1-son, 64-67-b.

Kilichev Bayramali, Safarova Maftuna The Concept of Totemism and Ethnonym// CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE Volume: 03 Issue: 05 | May 2022.

Kilichev B.E., Safarova O. Study of toponyms in the language of the work/ Galaxy International Interdisciplinary Research Journal (GIIRJ) ISSN (E): 2347-6915. Vol.10/ Issue 1, Jan. (2022) 92–95.